

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

YESSIMOVA ANARKUL ELMURATOVNA

**MARKAZIY OSIYO NOMADLARI KO'CHMANCHI SIVILIZATSIYA
FALSAFASINING MA'NAVIY ME'ROSI**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philosophical sciences**

Yessimova Anarkul Elmuratovna

Markaziy Osiyo nomadlari ko‘chmanchi sivilizatsiya falsafasining
ma’naviy me’rosi.....3

Есимова Анаркуль Эльмуратовна

Духовное наследие философии кочевой цивилизации номадов
Центральной Азии.....23

Yessimova Anarkul Elmuratovna

Spiritual Heritage of the Philosophy of the Nomadic Civilization of the
Nomads of Central Asia.....43

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of works published.....48

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

YESSIMOVA ANARKUL ELMURATOVNA

**MARKAZIY OSIYO NOMADLARI KO'CHMANCHI SIVILIZATSIYA
FALSAFASINING MA'NAVIY ME'ROSI**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fal1029 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Safarova Nigora Olimovna
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Shadmonov Kurban Badriddinovich
falsafa fanlari doktori, professor

Seytahmetova Natalya Lvovna
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil "26" aprel soat 09:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (635 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "12" aprel kuni tarqatildi.

(2025 yil "12" aprel dagi 5 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Namozov B.B.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Muzaffarov F.D.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda zamonaviy globallashuv sharoitida kishilar ongini molekulyar-atom darajasida manipulyatsiya qiladigan nanotexnologiyalarning rivojlanishi, yangi ilmiy yutuqlar fonida falsafiy tafakkurning o'zgarib borayotganligi ma'naviy madaniyatni taraqqiy ettirish, insoniyatni axloqiy tushkunlikdan xalos qilishning zamonaviy, innovatsion asoslarini yaratish bo'yicha g'oyalarga zarurat tug'dirmoqda. Innovatsion rivojlanish va kuchli axborot texnologiyalari rivojlanishi davrida o'tmish ajdodlar – ko'chmanchilarning hayot tajribasiga tobora oshib borayotgan qiziqish paradoksal hodisa bolib ko'rinadi. Shu sababli nomadlar ko'chma sivilizatsiyasining xususiyatlarini, muayyanlashgan turmush tarzi va ekzistensial jihatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani ya yetakchi ilmiy markazlarida nomadizm, Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy va madaniy merosi, falsafasi zamonaviy dunyoqarashga ta'siri, ko'chmanchi jamiyatlar ijtimoiy va siyosiy tizimlariga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Hozirgi kunda insoniyatning kelajagini nomadlarning hayot tarzi, dunyoqarashi, mentaliteti, an'analari, rasm-rusumlari, marosimlari, qadriyatlari, simvolikasida o'zining eng yorqin ifodasini topgan «migratsion tajriba» si belgilab berishiga shubha yo'q, albatta. Shuning uchun Markaziy Osiyo ko'chmanchi sivilizatsiyasi falsafasini ekologik, ijtimoiy va siyosiy masalalar bo'yicha ahamiyatli bilimlarga ega bo'lish uchun, insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondiradigan kundalik turmush tuzilmasi, makon va zamon tahlili asosida tadqiq etish zaruriyati ortib bormoqda.

O'zbekistonda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga doir «Markaziy Osiyo – 2040» konsepsiyasiga asosan Markaziy Osiyoning zamonaviy qiyofasini o'zgartirish, tinchlik va hamjihatlik, do'stlik va yaxshi qo'shnichilik, o'zaro ishonch va hamkorlik makoniga aylantirish yo'lida sa'y-harakatlar, madaniy-sivilizatsiyaviy qadriyatlarni tiklash, ilmiy-texnologik rivojlanishdagi o'zaro bog'liqligini shakllantirish hamda o'zaro anglashuv va hamkorlik sari strategik qadamlar izchil tashlanmoqda. «Butun dunyoda yosh avlodning ongi va qalbi uchun kurash davom etayotgan bugungi kunda biz Markaziy Osiyoning kelajagi bo'lgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashimiz lozim. Shu maqsadda Markaziy Osiyo yoshlari o'rtasida doimiy muloqot maydonini tashkil etish, qardosh xalqlarning yuksak axloqiy qadriyatlari va beqiyos ma'naviy merosini asrab-avaylash, ularni yanada boyitish va kelgusi avlodlarga bezavol yetkazishga ko'maklashadi»¹. Shuning uchun ham Markaziy Osiyo ko'chma sivilizatsiyasiga xos ma'naviy va madaniy merosning jahonning yangi sivilizatsion paradigmasini shakllantirishdagi o'rnini, nomadlar falsafasining xususiyatlarini etnomadaniy kontekstda ochib berish, uning mohiyati va mazmunini, xarakterli jihatlari aniqlash, falsafiy antropologiya va nomadik antropologiyaning konturlarining dialektik mohiyatini ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: “O'zbekiston”, 2023. –Б. 369.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son «O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida», 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2018-yil 23-iyundagi PQ-3080-son «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistonda Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son «Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son «Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi hamda Qozog‘iston Respublikasining ilm-fanni rivojlantirish bo‘yicha «Madaniy meros» davlat dasturi ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon ilm-fan vakillarini ko‘chmanchilik jamiyati dunyoqarashining falsafiy asoslari, ko‘chmanchi sivilizatsiya nazariyasi kabi ilmiy muammolar, ko‘chmanchi xalqlarning hayot tarzi, tabiatdan foydalanish strategiyasi, madaniyati, mentaliteti va tafakkur tarzi tobora ko‘proq qiziqtirib bormoqda. Nomadizmning klassik talqin etilishida zamonaviy olimlardan Z.Bauman, J.Urrining qarashlari postzamonaviy nomadning tushunilishini teranlashtirishgan va kengaytirgan. «Ijtimoiylik haqida yangi tafakkur» ning imkoniyatiga ishora qilib, globallashuv jarayonlari va yangi texnologiyalarning rivojlanishi ta’sirida mazkur yo‘nalishda turli yondashuvlar bilan motivlangan bir necha akademik diskurslarni qayd etib o‘tish lozim. Bu kontekstda J.Delez, P.Braidotti, Y.Xolland, A.Xovard, P.Kannisto, A.D’Andreaning nufuzli asarlari alohida qiziqish uyg‘otadi².

² Deleuze Gilles. “Nomad Thought.” In *The New Nietzsche: Contemporary Styles of Interpretation*, edited by D.Allison, New York, NY: Delta, 1977.-C. 274; Делёз Ж. Логика смысла: Пер. С фр.-М.: «Раритет», Екатеринбург: «Деловая книга», 1998. – С.480.; Braidotti R *Nomadic Theory: The Portable Rosi Braidotti*. Columbia University Press, 2011. – C.402.; Braidotti R. *Nomadic subjects: Embodiment and sexual difference in contemporary feminist theory*. – Columbia University Press, 1994.; Holland Eugene W. *Nomad Citizenship: Free-Market Communism and the Slow-Motion General Strike*. – University of Minnesota Press, 2011. –C. 344; Howarth A. *Not Quite the End of Nomadism: Gypsies, Travellers and Roma in Contemporary Europe //Nomadic Peoples*. – 2022. – T. 26. – №. 2. – C. 243-267.; Kannisto P. *Global nomads and extreme mobilities*. – Routledge, 2017. –C.

Mustaqil davlatlar hamdoshi olimlari orasida R.Sharipovning qadimgi turkiy kochmanchilarning sivilizatsiyasiga ta'rif berishi yangi yondashuv bilan ajralib turadi. A.Gombojapov, L.Gumilyev Markaziy Osiyodagi kochmanchi sivilizatsiyalarning shakllanishi, rivojlanishi va tanazzuliga bag'ishlangan asarlar yozishgan bo'lsa, ko'chmanchi madaniyatlar va qadimgi sivilizatsiyalarning o'zaro hamkorligi N.Abayevning asarida tahlil etilgan va u Markaziy Osiyo xalqlari sivilizatsiyasi Yevrosiyo sivilizatsiyasining shakllanishiga ta'sir ko'rsatganligini asoslashga xizmat qilgan. Y.Drobishev kochmanchi sivilizatsiyaning iqlim omillarini ochib beruvchi qimmatli ma'lumotlarni, K.Tashbayevning «Markaziy Osiyo chorvadorlari va dehqonlarining sivilizatsiyasi» to'plami esa bu muammoni mushohada qilish bo'yicha bir qator original mulohazalarni taqdim etadi³.

O'zbekistonda dissertatsiya mavzusiga aloqador, jumladan, sivilizatsiya tushunchasi, borliq va insonning gnoseologik tasnifi, tafakkur tarzining metodologik asoslari va tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlar I.Mo'minov, M.Xayrullayev, O.Fayzullayev, R.Nosirov, A.Berdimuratova, A.Muxammadiyarova, M.Xajiyeva, N.Safarova, N.Seytahmetova tomonidan olib borilgan. Nomadlarning dunyo haqidagi an'anaviy dunyoqarash – falsafiy tasavvurlarining ayrim jihatlarini muhokama qiladigan fundamental tadqiqotlar: zamon-makon tasavvurlarini, an'ana va urf-odatlarini, mifologiya va diniy e'tiqod M.Boltayev, H.Aliqulov, B.To'rayev, K.Shadmanov, Q.Nazarov, R.Shodiev, G.Navro'zova, B.Namozov tadqiqotlarida ochib berilgan⁴.

168 p.; D'Andrea A. Global nomads: Techno and new age as transnational countercultures in Ibiza and Goa. – Routledge, 2007. – С.255.; D'Andrea A (2006) Neo-nomadism: a theory of post identitarian mobility in the global age. *Mobilities* 1(1):P.95–119.

³ Шарипов Р. Г. Менталитет древних тюрков: Философско-мировоззренческий анализ: диссертация. кандидата философских наук : 09.00.11. - Уфа, 1999. – С.142.; Гомбожапов, А. Д. Кочевые цивилизации Центральной Азии в трудах Л. Н. Гумилева / А. Д. Гомбожапов; отв. ред. Б. В. Базаров; Российская акад. наук, Сибирское отд-ние, Ин-т монголоведения, буддологии и тибетологии СО РАН. - Улан-Удэ : Изд-во БНЦ СО РАН, 2010. – С.147; Абаев Н.В. Цивилизационная геополитика народов Алтай-Байкальского региона и Центральной Азии: [монография] / Абаев Н. В.; Тывинский гос. ун-т, Лаб. кочевых цивилизаций. - Кызыл : Изд-во ТывГУ, 2007. – С.160.; Дробышев, Ю. И. Человек и природа в кочевых обществах Центральной Азии (III в. до н. э. – XVI в. н. э.). Москва: Институт востоковедения РАН; 2014. – С.605.; Цивилизации скотоводов и земледельцев Центральной Азии = Civilizations of nomadic and sedentary peoples of Central Asia: [сборник] / Междунар. ин-т Центральноазиатских исслед. [ред. А. Горицина, К. Ташбаева]. - Самарканд; Бишкек: Междунар. ин-т Центральноазиатских исслед., 2005. – С.326.

⁴ Мўминов И.М. Ўзбекистондаги табиий-илмий ва ижтимоий-фалсафий тафаккур тарихидан лавҳалар. – Тошкент.: Фан, - 1999.; Хайруллаев М.М. К Изучению истории вольнодумных идей в общественной мысли народов Средней Азии. Тошкент: Фан, 1991. –С.3-10.; Файзуллаев О.Ф. Хайруллаев М.М. Культура периода раннего Ренессанса в Средней Азии. – Ташкент: 1994.– С.188.; Носиров Р. Хожа Аҳмад Яссавийнинг диний-ахлоқий қарашлари// Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан. – Тошкент.: Ўзбекистон, 1995.; Berdimuratova A. K., Muxammadiyarova A. Global qawipsizlik sistemasındaǵı Ózbekstan Respublikasınıń ekologiyalıq qawipsizligi hám civilizatsiyalıq rawajlanıw joli. Monografiya. Nókis. «Qaraqalpaqstan» 2012.-Б.-164 ; Хажиева М. Хожа Аҳмад Яссавийнинг маънавий-маърифий қарашларининг тарбиявий аҳамияти. – Тошкент: Muharrir, 2012. – Б.134 б.; Safarova, N.O. Intangible values and cultural heritage. // ISJ Theoretical & Applied Science, 06 (134),-2024. P.183-185.; N. Seytahmetova Қоғамдық сананы жаңғырту міндеттері аясындағы қазақстандық бірегейлікті қалыптастыру. 1 кітап. Формирование казахстанской идентичности в контексте задач модернизации общественного сознания. -. Алматы: ИФПР КН МОН РК, 2018. – 478 с; Болтаев М.Н. Хўжаи Жаҳон Абдуҳолиқ Ғиждувоний инсондўст ҳаким ва рифъат шайх. “Бухоро”. Бухоро. 1994.- Б.56.; Аликулов Х. Гуманистик мерос ва шаҳс маънавий камолоти. Т.: Фалсафа ва ҳуқук институти нашриёти, 2006. Б.59.; Наврўзова Г. Хожа Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва маънавий мероси.– Т.: “Фан”, 2021. – Б.244.; Намозов Б. Мухаммад Порсонинг фалсафий таълимоти. Монография. -Тошкент, “Мумтоз”, 2015. –Б. 176.;

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar klassifikatsiyasi shuni ko'rsatadiki, birinchidan, tadqiqotlarda tamaddun tamoyillari, ko'chma sotsium hayotiy faoliyati, ko'chma hayot tarzidan kelib chiqqan nomadik antropologiya tadqiq etilmagan; ikkinchidan, nomadlar ko'chmanchi sivilizatsiyasining xususiyatlari borasida yaxlit kompleks ilmiy tadqiqot amalga oshirilmagan. Shu sababli mazkur dissertatsiyada zamonaviy falsafiy tafakkurda insonning dunyoga nisbatan tamomila yangi bo'lgan universal paradigmasi rolga da'vo qiluvchi va anchadan beri so'nib borayotgan postmodernistik diskursning o'rniga qarab borayotgan falsafiy nomadologiyaning konturlari, ko'chmanchilar hayot tarzi, falsafiy qoidalarini anglash bilan izohlanadigan sivilizatsiyasining falsafiy-tarixiy tahliliga alohida e'tibor qaratilgan.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band «Barkamol inson shaxsini shakllantirish va uning ijtimoiy-pedagogik mohiyati» (2022-2026 yy.) hamda M.Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universitetining B-II-08-16 «Zamonaviy jamiyat barqaror rivojlanishining ilmiy paradigmasining falsafiy asoslari (2023-2026 yy) tadqiqot yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Markaziy Osiyo nomadlari ilmiy-ma'naviy merosidagi ko'chmanchi sivilizatsiyasiga xos falsafiy xususiyatlarni ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ko'chmanchi sivilizatsiyaga xos xususiyatlar, uning falsafiy asoslari, universalialarini hamda bu borada olib borilgan tadqiqotlarning metodologik tamoyillarini tadqiq etish;

ko'chma sotsiumning hayot faoliyatini, nomadizm yo'lining ontologiyasini ochib berish;

nomadlar ko'chmanchi sivilizatsiyasi hodisasini «yo'l», «nomad yoli» va «hayotiy faoliyatni ta'minlash» kabi asosiy tushunchalar asosida tahlil qilish;

nomadlar ko'chmanchi sivilizatsiyasi shakllanishi va faoliyat yuritishining obyektiv (rivojlanish) va subyektiv (inson tabiati) asoslarini tadqiq qilish;

ko'chma hayot tarzidan kelib chiqqan nomadik antropologiyaning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

nomadlar ko'chma sivilizatsiyasining ramziy xususiyatlarini hamda Markaziy Osiyo ko'chmanchilarining ma'naviy me'rosidagi axloqiy qadriyatlarining zamonaviy jamiyatdagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning obyektini Markaziy Osiyo nomadlari ko'chmanchi sivilizatsiyasining shakllanishi va rivojlanish jarayonlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmeti nomadlar ko'chmanchi sivilizatsiyasining falsafiy xususiyatlarini, ma'naviy merosiga xos ontologik, gnoseologik qarashlarni, ijtimoiy qadriyatlarni tarixiy-falsafiy tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, dialektik, retrospektiv tahlil, qiyosiy tahlil, tizimlilik, komparativistika, sinergetik va funksional tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sivilizatsiya kategoriyasining ijobiy-faol madaniy-tarixiy va salbiy-faol madaniy-tarixiy turlari asosida nomadlar ko'chma sivilizatsiyasi o'ziga xos mahalliy madaniy-tarixiy tip va betakror madaniyat ekanligi, tarixiy asosiga ko'ra uning mohiyatini inson ma'naviy faoliyati tashkil etishi, ularda shakllar xilma-xilligi va mukammalligi «yo'l» asos tushunchasida ifodalanishi, bu o'zida muayyanlashuvni, turmush tarzi tuzilmalari va muqaddas qadriyatlar tizimini aks ettirishi aniqlashtirilgan;

nomadizm yo'li fenomenining ekzistensial (kundalik turmushdan chekinish, o'zining «Men»iga erishish yoki O'zlikning arxetipini anglash), arxetipik (insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, kundalik turmush tarsi, muqaddas qadriyatlari), makon va zamon (makon munosabatlarining zamon munosabatlaridan ustun bo'lishi, dunyoning gorizontaal tuzilmasi to'g'risidagi tasavvurlarning hukmron bo'lishi) kabi xususiyatlari dunyoqarash universalialarining nomadlar dunyosi modeli asosida ochib berilgan;

nomadlarning vaqt madaniyati markazida turuvchi «yo'l vaqti» omilining quyosh nuri ostida hamma narsa aniq, xavfsiz, oysiz davrda hamma narsa yashirin, sirli, tartibsiz, qo'rqinchli sifatida qabul qilinishi kabi xarakterli jihatlari, o'zgaruvchan sharoitlarda qat'iy intizom, yaqin muloqot, jamoaviylik tuyg'usini kuchaytirish kabi nomadik antropologiyaning tamoyillari hamda ko'chmanchi sivilizatsiyaning safar, rang, raqam kabi simvolikalari asoslab berilgan;

nomadosofiyaning (ko'chmanchilar donishmandligi) skif-sak-turk-qozoq zaminida nur sochgan To'maris, Bumin, Qultegin, To'nyuquq, Atilla, Qo'rqut, Beybaris, Asan-qayg'i kabi tuganmas ahamiyatga ega tarhlari asosida nomadlar kochmanchi sivilizatsiyasining madaniyatni ijod qiluvchi mehmon va mezbonlik arxetipi, muqaddas fazo-vaqtga o'tish, buzg'unchini zararsizlantirish va kaosning ijodiy kuchlarini faollashtirish kabi ekzistensial kommunikatsiyasi hamda yuksak bag'rikenglik, diniy e'tiqodlar plyuralizmi, so'fiylik, erksevarlik ruhi kabi axloqiy-estetik tajribasi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

sivilizatsiyaning tarqalish va kengayish tendentsiyasi, o'z qadriyatlari, g'oyalari va munosabatlarini boshqalarga yuklash ekspansiyasi kabi morfologik hamda madaniyatning entropik so'vish, qat'iy belgilangan fazoviy chegaralar ichida cheklanganlik, dinamiklik va ijodiy kuchning mavjud emasligi kabi xususiyatlari ochib berilgan;

nomadlar ko'chma sivilizatsiyasining «nomad yo'li», «nomadosofiya», «muqaddaslik tuzilmasi», «safari vaqti» kabi omillari ko'chma sivilizatsiya hodisasi haqidagi tasavvurlarning teranlashuviga olib kelishi, uni yangi metodologik tavsifini, modellarini, xususan yangicha tabiatini asoslashga xizmat qilishi asoslab berilgan;

ko'chmanchi jamiyat hayotini ta'minlashning yuksak bag'rikenglikni tavsiflovchi diniy e'tiqodlarning plyuralizmi millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni saqlashda, jamiyatda ayollarning tengsiz mavqeini mustahkamlash tamoyili zamonaviy davrda gender muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishda hamda konservativlik an'analari cheklov emas, hayot yo'lini yoritib turuvchi

yulduz bo'lishi asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab shiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan Markaziy Osiyo xalqlarining ko'chmanchi sivilizatsiyasiga oid ma'naviy merosi va falsafasi, nomadologiyaning rivojlanishi, nomadlar ko'chma sivilizatsiyasining ma'naviy-axloqiy qarashlarini yanada chuqurroq va xolisona o'rganishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida nazariy-metodologik asos sifatida, shuningdek, ko'chmanchi madaniyati, uning ijtimoiy tuzilmasi va qadriyatlarining yaxlit tasvirini yaratishda, Markaziy Osiyoning tarixiy va madaniy rivojlanishida ko'chmanchilik davrining o'rni va ahamiyatini tahlil qilishda, ko'chmanchilik falsafasining modern davrdagi roli, zamonaviy jamiyatga ta'sirini hamda multidissiplinar yondashuvni shakllantirishda, yangi metodlarni ishlab chiqishda, tarbiya va ta'limni uzluksiz asosda tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ma'naviy merosni saqlash va rivojlantirish, yosh avlodga yetkazishda, mintaqadagi xalqlarning milliy identikligini mustahkamlashga, madaniy turizmni rivojlantirish, etnoturizm rivojlanishi, ko'chmanchilar madaniyatining noyob jihatlarini, ularning hayot tarzini, san'ati va falsafasini tanitish imkonini berishda, jamiyatda ekologik va ijtimoiy qadriyatlarni joriy etish, zamonaviy jamiyatda atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish masalalarida amaliy qo'llanma, ekologik barqarorlik va ijtimoiy adolatni ta'minlashda targ'ibot material, Markaziy Osiyo ko'chmanchilari tarixini va madaniyatini o'rgatishda pedagogik materiallar yaratish, madaniyatshunoslik, falsafiy antropologiya, aksiologiya, estetika va boshqa fanlarning dasturlarni yaratishda, OAVda dasturlar tayyorlashda shuningdek, ijtimoiy fanlar uchun o'quv-metodik qo'llanmalarni tayyorlashda, tasavvuf va falsafa lug'atlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Markaziy Osiyo nomadlari ilmiy-ma'naviy merosidagi ko'chmanchi sivilizatsiyasiga xos falsafiy xususiyatlarni ochib berishga bag'ishlangan tadqiqot ilmiy natijalari asosida:

sivilizatsiya kategoriyasining ijobiy-faol madaniy-tarixiy va salbiy-faol madaniy-tarixiy turlari asosida nomadlar ko'chma sivilizatsiyasi o'ziga xos mahalliy madaniy-tarixiy tip va betakror madaniyat ekanligi, tarixiy asosiga ko'ra uning mohiyatini inson ma'naviy faoliyati tashkil etishi, ularda shakllar xilma-xilligi va mukammalligi «yo'l» asos tushunchasida ifodalanishi, bu o'zida muayyanlashuvni, turmush tarzi tuzilmalari va muqaddas qadriyatlar tizimini aks

ettirishiga oid ilmiy-amaliy takliflar va tavsiyalar Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining faoliyatida, jumladan 2024-yilda ma'naviy ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining VIII yo'nalishida belgilangan «Milliy qadriyatlar, ma'naviy fazilatlar va ijtimoiy odoblar targ'iboti» 41-bandli «Milliy davlatchiligimiz tarixi, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish orqali aholi o'rtasida milliy birdamlik, vatanga sadoqat, milliy o'zligidan faxrlanish tuyg'ularini kuchaytirish» mavzusida targ'ibot ishlarini tashkil etishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 1-apreldagi 10/165-son ma'lumotnomasi). Natijada nomadlarning ko'chmanchi hayot tarzi, falsafiy qoidalarini anglash bilan izohlanadigan sivilizatsiyasining falsafiy-tarixiy rekonstruksiyasini ochib berishga xizmat qilgan;

nomadizm yo'li fenomenining ekzistensial (kundalik turmushdan chekinish, o'zining «Men»iga erishish yoki O'zlikning arxetipini anglash), arxetipik (insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, kundalik turmush tarsi, muqaddas qadriyatlari), makon va zamon (makon munosabatlarining zamon munosabatlaridan ustun bo'lishi, dunyoning gorizontali tuzilmasi to'g'risidagi tasavvurlarning hukmron bo'lishi) kabi xususiyatlariga doir nazariy qarashlar va ilmiy-amaliy tavsiyalaridan «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi faoliyatida, jumladan partiyaning 2020-2024 yillarga mo'ljallangan Saylovoldi dasturida keltirilgan «VI Ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ustuvor yo'nalishlar» dagi «Xalqimizning tarixiy, madaniy va ilmiy-intellektual merosini asrab- avaylash, boyitish va yanada ko'paytirishga ko'maklashish, o'zbek xalqining boy tarixi va madaniyatini o'rganish, ularni kamol topib kelayotgan yosh avlod o'rtasida keng miqyosda targ'ib etish, yoshlarda tarixiy meros va xalq an'analari nisbatan chuqur hurmat, ehtirom uyg'otish kabi vazifalarini bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi Markaziy kengashining 2024-yil 29-apreldagi 02/02-27- son ma'lumotnomasi). Natijada, tadqiqotga oid ilmiy-nazariy tahlillar ijtimoiy madaniyat kategoriyalaridagi o'zbek xalqining ma'naviy qiyofasini takomillashtirish jarayonida gumanistik g'oyalarning mohiyatini chuqur anglashga o'rgatish, boy milliy tarixiy merosimizning ahamiyatini oshirish bilan bog'liq sohalarda ohb borilayotgan faoliyatning samaradorligini oshishiga hamda tizimdagi xodimlarning ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi bilim va ko'hiikmalarini oshirish hamda mafkuraviy targ'ibot ishlarini boyitishga xizmat qilgan;

nomadlarning vaqt madaniyati markazida turuvchi «yo'l vaqti» omilining quyosh nuri ostida hamma narsa aniq, xavfsiz, oysiz davrda hamma narsa yashirin, sirli, tartibsiz, qo'rqinchli sifatida qabul qilinishi kabi xarakterli jihatlari, o'zgaruvchan sharoitlarda qat'iy intizom, yaqin muloqot, jamoaviylik tuyg'usini kuchaytirish kabi nomadik antropologiyaning tamoyillari hamda ko'chmanchi sivilizatsiyaning safar, rang, raqam kabi simvolikalarga oid ilmiy yangiliklardagi asosiy g'oyalardan «O'zbekiston» teleradiokanali «Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshitirishlar» muharririyatining «O'zbekiston yoshlari», Ta'lim va taraqqiyot» tele va radioeshittirishlari ssenariylarini (2023-2024 yy) tayyorlashda foydalanilgan.

(«O‘zbekiston teleradiokanali» davlat muassasasining 2024-yil 13-fevraldagi O‘zRv-09-24-son ma’lumotnomasi). Natijada, ko‘chma sivilizatsiya falsafasining ma’naviy merosiga bag‘ishlangan efir teleko‘rsatuvlari, ssenariylar mazmun-mohiyati, davra stollari so‘nggi ilmiy yangiliklar bilan boyitilishiga, va sifat jihatdan zamon talablari doirasida keng auditoriyani yig‘ishga nazariy va pragmatik jihatdan xizmat qilgan;

nomadosofiyaning (ko‘chmanchilar donishmandligi) skif-sak-turk-qozoq zaminida nur sochgan To‘maris, Bumin, Qultegin, To‘nyuquq, Atilla, Qo‘rqut, Beybaris, Asan-qayg‘i kabi tunganmas ahamiyatga ega tarhlari asosida nomadlar kochmanchi sivilizatsiyasining madaniyatni ijod qiluvchi mehmon va mezbonlik arxetipi, muqaddas fazo-vaqtga o‘tish, buzg‘unchini zararsizlantirish va kaosning ijodiy kuchlarini faollashtirish kabi ekzistensial kommunikatsiyasi hamda yuksak bag‘rikenglik, diniy e‘tiqodlar plyuralizmi, so‘fiylik, erksevarlik ruhi kabi axloqiy-estetik tajribasiga doir ilmiy yangiliklardan O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan A-OT-2021-11-son «O‘zbek xalqi diniy va milliy qadriyatlari kompleksining elektron-transdisiplinar platformasini yaratish» (2021 y) amaliy loyiha doirasida belgilgan vazifalar ijrosini ta‘minlashda foydalanilgan. (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 6-dekabrda 04/11-12651-son ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida nazariy-metodologik tahlilning yanada boyitilishiga hamda loyihaning nazariy va amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining arrobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola (3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 133 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti, tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e‘lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Nomadlar ko'chma sivilizatsiyasi hodisasini tadqiq qilishning metodologik prinsiplari**» deb nomlangan birinchi bobida nomadlar ko'chmanchi sotsiumini tadqiq qilishning sivilizatsion muammolari va ko'chmanchi jamiyatning sivilizatsiyaviy tahlilida antropologik tamoyilning o'рни tadqiq etilgan.

Tadqiqotda N.Danilevskiy, A.Toynbi, O.Shpengler, E.Toffler, M.Barg, F.Brodel, F.Fukuyama, S.Xantington⁵ ilmiy ishlariga asoslanib, "sivilizatsiya" kategoriyasining uning antik davrga borib taqaladigan ibtidosidan boshlab zamonamizgacha bo'lgan davr miqyosida retrospektiv tahlilini amalga oshirgan. Mazkur tahlilda boshqa tavsiflar bilan bir qatorda, uning nomadlar ko'chma sivilizatsiyasi falsafasi fenomenining tadqiqiga kiritish mumkin bo'lgan metodologik salohiyati aniqlangan.

Dissertant fikriga ko'ra, nomadlar jamiyatini sivilizatsiya tamoyili asosida tadqiq etish murakkab xususiyatlarga ega. Zero, sivilizatsiya tushunchasi odatda o'troq hayot tarzi, shaharlar, davlatlar va murakkab ijtimoiy tuzilmalar bilan bog'lanadi. Nomadlar jamiyati bu an'anaviy tushunchaga mos kelmaydi. Shu sababli, nomadlar sivilizatsiyasi tushunchasi an'anaviy sivilizatsiya tushunchasini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Nomadlar sivilizatsiyasi ko'chmanchilik, chorvachilik, urug'-qabila tuzumi, an'anaviy madaniyat va din kabi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar nomadlar sivilizatsiyasini o'troq sivilizatsiyalardan farq qilishini ko'rsatib beradi.

Nomadlar sivilizatsiyasining o'ziga xos xususiyatlarini tushunish uchun sivilizatsiya tushunchasini kengaytirish va uning yangi modellarini ishlab chiqish zarur. Chunki bu sivilizatsiya ko'chmanchilar jamiyatining dunyoqarashi va qadriyatlari bilan bog'liqdir. Nomadlar tabiat bilan uyg'unlikda yashashga, oila va urug'-qabila aloqalariga, an'anaviy madaniyat va dinga katta ahamiyat beradilar. Nomadlar jamiyatining ijtimoiy tuzilishi va siyosiy tizimida odatda urug'-qabila tuzumi, oqsoqollar kengashi va urug'-qabila boshliqlari muhim rol o'ynaydi. Bunday jamiyatning madaniyati va san'atida og'zaki ijod, xalq qo'shiqlari, raqslari, amaliy san'at va an'anaviy hunarmandchilik omillari ustuvorlik qiladi.

Tadqiqotda ko'chmanchilar sivilizatsiyasining tarixiy-falsafiy jihatlari va rivojlanish bosqichlarini o'rganish asosida bu sivilizatsiyaning tarixi insoniyat tarixining ajralmas qismi ekanligi, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini ilmiy baholash zarurati asoslab berilgan. Jahon sivilizatsiyasiga chorvachilik, otchilik, metallurgiya, harbiy san'at va boshqa sohalar orqali ilmiy-amaliy ahamiyatga molik hissa qo'shganligi ta'kidlangan.

⁵ Данилевский Н.Я. Россия и Европа: Взгляд на культурные и политические отношения Славянского мира к Германно-Романскому. -М.: Книга, 1991.С. -573., Тойнби А. Постигание истории. - М.: Прогресс, 1991. – Б.736., Тоффлер Э. Третья волна. -М.: ООО «Фирма «Издательство АСТ», 1999. -С.784., Барг М.А. О категории «цивилизация» // Новая и новейшая история. -1990.-№5.-С. 25-40., Бродель Ф. Материальная цивилизация, экономика и капитализм, XV- XVIII вв. -М.: Прогресс, 1986. - Т.1: Структуры повседневности: возможное и невозможное. – С.624., Фукуяма Ф. Конец истории? // Вопросы философии. -1990. -№ 3. - С.134- 148., Хантингтон С. Столкновение цивилизаций? // Полис: Политические исследования. -1994. - №1. - С.33- 48.

Ko'chmanchi jamiyatlarni sivilizatsiyaviy tahlil qilishda antropologik tamoyil insonni tadqiqot markaziga qo'yadi, uni ko'chmanchi jamiyatlar dinamikasi va tuzilishini tushunish uchun asosiy element va parametr sifatida qaraydi. Bu yondashuvda inson madaniyat tashuvchisi sifatida baholanib, moslashuvchanlik, til va folklor tarixiy xotirani, ijtimoiy meyorlarni va madaniy xususiyatlarini ochib berishi isbotlangan. Antropologik yondashuv ko'chmanchi jamiyatni tashkil etishda muhim rol o'ynaydigan oilaviy va qarindoshlik aloqalarini o'rganishga alohida e'tibor beradi. Ijtimoiy iyerarxiya esa ko'chmanchi jamiyatlarda resurslar qanday taqsimlanishi va qarorlar qabul qilinishini tushunishga yordam beradi. Ko'chmanchilarning atrof-muhit bilan qanday munosabatda bo'lishi, ular tabiiy resurslardan qanday foydalanishini va ularning turmush tarzi ekologiyaga qanday ta'sir qilishini o'rganadi.

Dissertatsiyada falsafiy tafakkur va jamiyatshunoslikning zamonaviy rivojlanish bosqichida oldinga chiqadigan antropologik yondashuvning mohiyati ochib berilgan. Bunda uning mohiyati P.A.Sorokin, E.Fromm, A.Maslou, J.Gilford va boshqalarning asarlarida rivojlantiriladigan uzologiyadan olib chiqiladi⁶. Ko'p shakldagi inson ehtiyojlarining ikki darajali tasnifi g'oyasi ilgari surilgan va asoslangan. Shuning uchun ham mazkur tadqiqotning sezilarli farqi sifatida muallifning konseptual pozitsiyasi ilgari surilib, unga ko'ra hech bo'lmaganda asosiy xususiyatlarida nomadlarning ko'chma sivilizatsiyasi hodisasi, uning dunyoqarash universalialari va falsafasini adekvat anglash ko'plab tadqiqotchilarning ilmiy qiziqishlari e'tiboridan uzoq muddat chetda qolgan nomadlar yo'li ontologiyasiz mumkin emasligi ilgari suriladi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, nomadlar sivilizatsiyasi zamonaviy jamiyatga tabiat bilan uyg'unlikda yashash, an'anaviy madaniyatni saqlash va ko'p madaniyatlilik kabi muhim saboqlar beradi. Ko'chmanchilarning tarixga qo'shgan hissasini, jumladan ularning savdo, harbiy nizolar va madaniy almashinuvdagi rolini tahlil qilish ularning jahon tarixidagi ahamiyatini tushunishga yordam beradi. Ko'chmanchi jamiyatlar duch kelayotgan zamonaviy muammolarni, jumladan iqlim o'zgarishi, iqtisodiy globallashuv va siyosiy marginalizatsiyani o'rganish ularning zamonaviy dunyoga moslashuvini tushunishga yordam beradi.

Dissertatsiyaning «**Nomadlarning ko'chma sivilizatsiyasi ma'naviy qadriyat sifatida**» deb nomlangan ikkinchi bobida nomad jamiyatiga sivilizatsion yondashuv, uning insoniyat tarixida fenomen sifatida tadqiq qilinishi uchun katta imkoniyatlarni taqdim qilishi, chunki u nomadlar hayotiy faoliyatining barcha tomonlarini belgilab beradigan hal qiluvchi omilning ajratib ko'rsatilishiga ko'maklashishi ochib berilgan.

Nomad sotsiumiga qo'llanilganda bunday asosiy dominanta sifatida ko'chma hayot tarzi g'aydalanadi. U nomadlar hayot tarzi borlig'ining barcha tomonlarini, shu jumladan ularning an'anaviy dunyoqarash-falsafiy universalialarini belgilab

⁶ Сорокин П.А. Человек. Цивилизация. Общество. -М.: Политиздат, 1992.-С.543., Фромм Э. Анатомия человеческой деструктивности // Человек. - 1993.- №1. -С. 102-123., Маслоу А. Мотивации и личность // Вестник МГУ. Серия 7: Философия. -1991. -№3. - С. 66-75.

berib, bunda ko'chma sivilizatsiya hodisasining falsafiy anglanishida eng muhim tushunchalardan biri hisoblanadi. Bunda nomad sotsiumining dastlabki tahlil punkti sifatida ko'chma hayot tarzi ikki asoslari sifatida: 1) ko'chma sivilizatsiyaning rivojlanish joyi; 2) insonning ko'chmanchilik tabiatining aniqlanishi va tahlili turadi.

Mazkur bobda Dasht betakror rivojlanish o'rni sifatida unda o'troqlashgan kishilarning ko'chma hayot tarzini belgilab berishi, u esa o'z navbatida kishining alohida tafakkuri shakllanishiga ko'maklashi asoslangan hamda uni shartli ravishda generatsion yoki generativ tafakkur deb nomlash mumkinligi qayd etilgan. U quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: 1) vaziyatlilik, 2) dinamiklik va 3) kreativlik. Nomad tafakkurining vaziyatliligi shuni anglatadiki, fikrlar, g'oyalar uning atrofidagi o'rab turuvchi muhitning uzluksiz o'zgarishiga o'ziga xos reaksiya sifatida namoyon bo'ladi va vaqtning keyingi lahzalarida uning miyasida qanday fikrning paydo bo'lishini oldindan bashorat qilib bo'lmaydi. Nomad tafakkurining dinamikligi safarda bo'lish bilan taqozo qilingan fikrlarning uzluksiz almashinishi, o'ziga xos «ong oqimi» bilan bog'liqdir. Nomad tafakkurining kreativligi – bu ijod qilishga, birinchi navbatda qoshiq-musiqaga bo'lgan betakror qobiliyatdir. Qozoq zamini bo'ylab kezgan sayohatchilardan biri «Menga butun dasht kuylayotgan bo'lib tuyuldi» deb o'z taassurotlarini bayon etgan.

Tadqiqotchi ko'chma sivilizatsiyada insonning tabiati bilan taqozo qilingan yana bir asos mavjudligini ta'kidlaydi. Bu insonga immanent xos bo'lib uni yo'lga, safarga chaqiruvchi, sayohat qilishga, ko'chmanchilikka intilish mavjuddir. Biroq, inson tabiatining mazkur jihati hanuzgacha mavjud ilmiy adabiyotlarda to'laqonli ishlab chiqilmagan. Nomadlar ko'chma sivilizatsiyasining falsafasida antropologik problematika, ya'ni insonning mohiyati va tabiati, uning hayoti va o'limi, insonning tabiiy va ijtimoiy dunyodagi o'rni haqidagi tasavvurlar markaziy o'rinni egallaydi. Bu nomadik antropologiyaning o'z mohiyatiga ko'ra eng sezilarli xususiyati, o'z mazmuniga ko'ra yashab qolish uchun kurash hisoblangan nomad hayotiy borlig'ining ekzistensial xarakteridir. Borliqning mo'rtligi, qisqa muddatliligi, o'z hayotining o'tkinchiligini (yolg'on dunyo) his etish nomad hayotiga hamroh bo'lib boradi, uning zamon va inson haqidagi tasavvurlarida aks etadi. Antropologik problematika qozoq falsafasi misolida G.Yesimning «Hakim Abay», «Sana bolmisi» (10 tomli), «Adam-zat», N.R.Musayevaning «Tilsimtabigat», G.J.Nurischeva «Адам өмірінің философиялық мәні», T.K.Burbayevaning «Ұлт менталитеті» va boshqalarning asarlarida uchraydi⁷.

Dissertant nomadik antropologiyaning tahlilida kerakli izohni keltirib, mazkur tadqiqotning vazifasi faqatgina nomadik antropologiyaning xususiyatini aniqlash ekanligini ta'kidlaydi. Avvalo, bu nomadik antropologiyaning ekzistensial xarakteridir. Nomadik antropologiyaning mazkur xususiyatini batafsil tahlili G.J.Nurischevaning «Адам өмірінің мәні» asarida taqdim etilgan. Falsafiy-antropologik adabiyotlarda inson tabiatining turli konsepsiyalari mavjud. Ko'plab

⁷ Есим Г. Хаким Абай. -Алматы: Билим, 1995. -192 с., Нурышева Г.Ж. Адам өмірінің философиялық мәні. - Алматы, 2001. -Б.240.

ilmiy asarlarning sahifalarida inson o'zining turli qiyofalarda: siyosiy mavjudot sifatida (Aristotel), tabiatning yoki tabiiy mohiyatning mahsuli sifatida (J.J.Russo, L.Feyerbax), mashina sifatida (J.Lametri), xudoning yaratgani va xudoning bandasi sifatida (diniy adabiyotlar), bioijtimoiy mavjudot (marksist falsafa), ekzistensial mavjudot (ekzistensializm), axloqiy mavjudot (I.Kant), o'ynaydigan mavjudot (I.Xeyzing), ezoterik mavjudot, arxetipik mavjudot (K.Yung), libido tomonidan boshqariladigan mavjudot (Z.Freyd), ijodiy mavjudot sifatida (N.A.Berdyayev), kosmik mavjudot (rus kosmizmi) va boshqa qiyofalarda namoyon bo'ladi⁸.

Tadqiqotda nomadlar ramziy dunyosining aksiologik asoslarini tahlil qilishda «semiotika» - belgilar tizimi haqidagi ta'limotga murojaat qilinib, «ramz» tushunchasining mohiyati va mazmuni ochib berilgan. Hozirgi kunda ramzning umume'tirof etilgan ta'rifi mavjud bo'lmaganligi, mazkur kategoriyaning mohiyati va mazmunini tahlil qilishni birmuncha qiyinlashtiradi. Boshlang'ich nuqta sifatida «Ramz (yunoncha. simbolon- belgi, ishora) – umuman olganda – moddiy ashyolar, hodisalarning imkoniyatini qayd etadigan, shuningdek, his qilinadigan obrazlarning bevosita hissiy-moddiy borliqdan farqlanadigan ideal mazmunni ifodalaydigan tushuncha»⁹dir deb qayd etish mumkin. Boshqacha aytganda, ramz deb qandaydir predmet, hodisa, harakat, jarayonning o'rnini bosuvchi sifatida namoyon bo'ladigan moddiy belgiga aytiladi. Masalan, qadimgi Xitoy falsafasida daraxt tug'ilishning ramzi, olov –maksimal faollik, suv minimal faollik, metal – tushkunlik ramzi hisoblanadi. Bu holatda shu narsa ko'rinib turibdiki, bir predmet, boshqa premetlarning xususiyatlarini shunday ifodalaydiki, biz ular orasida ko'plab omillarga bog'liq ravishqa kuchli farqlanadigan ma'lum bir aloqalarni o'rnatamiz.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, ko'chmanchi sivilizatsiyasining shakllanishi va rivojlanishida ko'chmanchilarning dunyoqarashi, idroki, turmush tarzi muhim rol o'ynaydi. Bu kontseptsiya ko'chmanchilarning kundalik hayotiga diniy va ma'naviy jihatlarning chuqur integratsiyalashuvini ko'rsatadi. Ko'chmanchi sivilizatsiya voqeligida shaxsning o'ziga xos tipi – Nomo homadus shakllanganligi, uning barcha insoniy fazilatlarini har tomonlama rivojlantirish, kundalik hayotni muqaddas voqelik sifatida idrok etish ma'nosida umuminsoniylik eng muhim belgilari ekanligi g'oyasi ilgari suriladi. U jismoniy, intellektual va ma'naviy taraqqiyotni o'zida mujassam etgan inson idealining timsoli bo'lib, unga o'zgaruvchan sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashish imkonini beradi, kundalik hayotga muqaddas voqelik sifatida qarash esa uning hayotiga chuqur mazmun bag'ishlaydi va ko'chmanchi sivilizatsiya barqarorligini kafolatlaydi. Bu kontseptsiya ko'chmanchi jamiyatlarning antropologik imkoniyatlarini talqin qilishga va inson mohiyatiga yangicha nuqtai nazardan qarash imkonini beradi.

⁸ Руссо Ж.-Ж. Рассуждения о науках и искусствах // Мир философии: Книга для чтения. Ч. 2: Человек. Общество. Культура. - М.: Политиздат, 1991. - С. 322-323., Юнг К.Г. Архетип и символ. - М., 1991.,

⁹ Ю.М. Лотман. Избранные статьи в трех томах. ТОМ I. Статьи по семиотике и топологии культуры. Издательство «Александра», 1992.-С.56.

Dissertatsiyaning uchinchi «**Nomadlar ko'chma sivilizatsiyasi falsafasining merosi**» deb nomlangan bobida XX asrning oxiridagi ziddiyatli tarixiy dramatik hodisa – Sovet Ittifoqining qulashi va uning bepoyon makonida yosh mustaqil davlatlarning shakllanishi ularning oldiga yangi istiqbollarni ochganligi, shu bilan birgalikda ularning oldiga tarixning yangi muammolarini qo'yganligi aks ettirilgan.

Buyuk davlatlarning (AQSh, Xitoy, Rossiya) sobiq sovet respublikalari ustidan nazoratini o'rnatishdagi tashqi muammolar orasida geosiyosiy kurash belgilab beruvchi ahamiyatga ega. O'z mohiyatiga ko'ra, xalqaro sahnada ulkan energetika xomashyosi (ko'mir, neft, gaz, uran), metallardan qora metal (temir) rangli (alyuminiy, mis, oltin, kumush, platina), nodir yer metallari (osmiy, reniy va hkz.) zahiralarga ega bo'lgan Markaziy Osiyo uchun murakkab, murosasiz kurash avj olmoqda. Bundan tashqari, Markaziy Osiyo mintaqasi o'zining deyarli 80 millionli aholisi bilan Xitoy va Rossiya o'rtasida qulay geosiyosiy makonda joylashib, ular o'rtasida tranzit transport korridorini tashkil qilgan holda tovarlarning sotilishi uchun keng bozordir.

Tashqi muammolar qatoriga shuningdek, tahdidlaridan dunyoda hech bir mamlakat kafolatlanmagan xalqaro terrorizm, xalqaro narkotrafik, diniy mutaassiblikni kiritish lozim. Ichki muammolarga u yoki bu mamlakatdagi siyosiy beqarorlashuv, demografik holatning yomonlashuvi, yashash uchun muhitning ifloslanishi va hokazolarni kiritishimiz mumkin. Tashqi muammolardan kelib chiqsak, bunda Markaziy Osiyo mamlakatlari, ozining Rossiya va Xitoy, Yevropa va Osiyo va o'rtasidagi geografik joylashuvi, avvalo neft va gaz bolgan yirik energetika zahiralari tufayli korsatib otilgan dunyo kuch markazlari geosiyosiy manfaatlarining obyektlariga aylanishmoqda.

Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, Markaziy Osiyo ittifoqining muvaffaqiyatli ravishda amalga oshishi uchun, avvalo madaniy va ilmiy aloqalarni rivojlantiruvchi xarakterdagi nazariy asoslar ishlab chiqilishi lozim. Bu masalada til yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlar doirasida o'ziga xos metodologiya shakllandi. Turli sabablar tufayli qozoq, qirg'iz, turkman va o'zbek tillari umumiy turkiy komponent bilan bir qatorga o'ziga boshqa tillardan (arab, fors) elementlarni o'zlashtirib, bu ma'lum ma'noda tolaqonli til muloqotini amalga oshirishda qulaylik yaratmoqda.

